



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024-yil 30-aprel

VI-43-38-6-0-K/24

Namangan viloyati

Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi yuzasidan ochiq muhokama o'tkazish ishlarini tashkillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 iyundagi "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-tamoillari to'g'risida"gi 781-son qaroriga asosan Uchqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida Ko'prikboshi, Qumto'g'on, Soxil, Yog'du maxalla fuqarolari yig'inlarida joylashgan, mulkdorlarning yer uchastkalarini olib qo'yish bo'yicha tashabbusni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Uchqo'rg'on tuman hokimligining Uchqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida Ko'prikboshi, Qumto'g'on, Soxil, Yog'du maxalla fuqarolari yig'inlarida joylashgan 29 ta turar va 4 ta noturar jami 33 ta mulkdorlarning yashash xonadonlari va noturar obyektlari joylashgan yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha tashabbusi ma'qullansin.

2. Uchqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida Ko'prikboshi, Qumto'g'on, Soxil, Yog'du maxalla fuqarolari yig'inlarida joylashgan 29 ta turar va 4 ta noturar jami 33 ta huquq egalari bilan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-tamoillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablari asosida ochiq muhokama o'tkazilishiga rozilik berilsin.

3. Uchqo'rg'on tuman hokimi v.v.b (B.To'lamirzayev)ga:

tumandagi yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan mulkdorlarni to'liq o'rgangan xolda ochiq muloqatda xar birini ishtirokini ta'minlash;

ochiq muloqot yakuniga ko'ra amaldagi tartib qoidalari asosida tuman bayonnomasini tuzish;

bayonnomaga ochiq muxokamada ishtirok etgan tashabbuskor hamda huquq egalarning (ular vakillarining) ro'yxati, shuningdek ochiq muhokama jarayonining audio va video yozuvi ilova qilinishini to'liq ta'minlash;

ochiq muloqot tarzida tayyorlangan bayonnoma Xalq deputatlari viloyat kengashiga taqdim etish vazifalari yuklansin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan keyin bir ish kuni ichida viloyat hamda Uchqo‘rg‘on tuman xokimliklariga yuborilsin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari I.RAxmatov ushbu qaror viloyat va Uchqo‘rg‘on tuman hokimligining rasmiy veb-saytlarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimliklarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida to‘liq hajmda e‘lon qilinishini ta‘minlasin.

6. Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta‘minlab borishga tuman hokimi v.b B.To‘lamirzayevga zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish vazifasi Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Iminov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari G‘.Djamalov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



ABDURAZAKOV
SHAVKAT
SHOKIRDJANOVICH